



**“OLIY TA’LIM MAZMUNIGA
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”
mavzusida ilmiy-nazariy anjuman
MATERIALLARI**



bog'liqligini, tizimiyligini nazarda tutish darkor. Xuddi shu boisdan o'zbek xalq musiqa ijodiyoti bilan tanishish, uni o'rganish hamda amaliy o'zlashtirish borasida uslubning o'rni va ahamiyati benihoya katta.

Qadim-qadim zamonlardan ona-zaminimiz o'zining boy ma'naviy merosi, yuksak madaniyati, urf-odat, marosim va an'analari bilan jahon sivilizatsiyasida munosib o'ren egallagan. Bu o'lka xalqlarining buyuk siymolari dunyo ilm-fani va madaniyatining barcha sohalari rivojiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hamidov H. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. -T.: O'qituvchi, 1996. -174 b.

2. O'zbek xalq musiqasi. Buxoro maqomlari. To'plovchi va notaga oluvchi YU .Rajabiy. III-tom. -T.: O'zbekiston SSR Davlat badiiy Adabiyot nashriyoti, 1959. -864 b.

3. Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. -T.: FAN, 1993. -56 b.

4. Fayzulina S.X. O'quvchi yoshlarning estetik tarbiyasi. - T.: O'qituvchi, 1978. -49 b.

TALABALARНИ IJTIMOIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA **M.N. Amonov**

Buxoro davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasi o'qituvchisi

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya jarayoniga kompleks yondashuv yuksalib borayotganligi, yoshlar kamolotining davlatimiz taraqqiyoti, uning kelajagi, bevosita barkamol shaxs shakllanishi bilan uzviy bog'liqligi va bo'lajak pedagog va psixologlar ongiga ma'naviy qadriyatga mansub manbalarni singdirish dolzarb masalalardandir. Xalq og'zaki ijodi durdonalarida ifodalangan axloqiy poklik, mehnatsevarlik, yurtparvarlik, shu aziz vatan tuprog'inining, uning har bir qarich yerining muqaddasligi haqidagi fikrlarning, laparlar mazmuni, san'atkorlar, xalq baxshilari ijrosidagi kuy va qo'shiqlarda, talabalarga tushunarli tilda, qiziqarli, o'ziga xos iじro usulida ifoda qilinishi tariximizning ildizlarini chuqurroq o'rganishda hamda ijtimoiy-pedagogik faolligini rivojlantirishda muhim manba rolini bajaradi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Birinchi marta "ijtimoiy pedagogika" iborasi 19-asrning ikkinchi yarmida "nemis o'qituvchilarining otasi" Adolf Disterveg tomonidan taklif qilingan. 20-asr boshlarida mashhur nemis faylasufi Pol Natorp xalq orasida madaniyat va ma'rifatni yoyish maqsadida jamiatning ta'lim kuchlarini birlashtirish va ijtimoiy-pedagogik faoliyat g'oyasini ilgari surdi va bu faoliyatni ijtimoiy pedagogika deb atagan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi sharoitida jamiyatning barcha a'zolarini - bolalar va kattalarni qamrab oluvchi, nafaqat mehnatga, balki, ijtimoiy-mafkuraviy tayyorgarlikka ham mo'ljallangan o'qitish va tarbiya faoliyati elementlarini vujudga keltirdi. Qadimgi dunyoda jamiyat a'zolarini o'qitish va tarbiyalash jarayonida ijtimoiy omillarni hisobga olish g'oyalari va hatto an'analari paydo bo'ladi.

Aristotel (miloddan avvalgi 4-asr) - insonning jismoniy, aqliy va axloqiy rivojlanishining birligi zarurligi haqidagi g'oyani ilgari surdi. Mashhur Rim notiq olimi M.Kvintilian (milodiy 1-asr) "Notiq tarbiyasi to'g'risida" nomli pedagogik asarida oiladagi hayot sharoitlari, jumladan, oila ichidagi lingvistik muloqot ham shaxs sifatida kamol topishiga ta'sir etishini ta'kidlagan.

Qadim zamonlarda mavjud bo'lgan ta'lim va tarbiya tizimlari aniq ijtimoiy-mafkuraviy yo'nalishga ega bo'lib, u davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy xususiyatlarini o'zida aks ettirgan. Masalan, mashhur Sparta va Afina ta'lim tizimlari, ular orasidagi farqlar ijtimoiy va siyosiy-mafkuraviy tartiblarning farqi bilan belgilanadi. O'rta asrlarning oxirlarida va Uyg'onish davrida insonparvarlik va insonni sinfiy qaramlikdan ozod qilish mafkurasi kuchga kirdi. T. Mor "Utopiya" a va T. Kampanella "Quyosh shahri" asarida allaqachon sifisiz ta'lim va tarbiya g'oyalarni ilgari surgan.

Hozirgi davrda shaxsning ijtimoiy-pedagogik faoliyati taraqqiyot omili sifatida e'tirof etilganligi sababli, Aflatunning insonni "beshikdan to qabrgacha" o'rgatish haqidagi mashhur g'oyasi qayta jonlanadi va pragmatik ta'lim tushunchalari paydo bo'ladi. Ya.A. Komenskiyning pedagogik asarlarida har bir insonning butun umri davomida uzlusiz ta'lim egallashi belgilab berilgan. Ma'rifat asri deb atalgan XVIII asrda jamiyat ongida ta'lim va tarbiya jamiyat taraqqiyotining bunyodkor va o'zgartiruvchi omili ekanligi, insonda doimo maqsad bo'lishi kerak, degan g'oya tasdiqlandi. Shu asosda bepul ta'lim konsepsiysi, barkamol shaxsni tarbiyalash va shu asosda jamiyatni o'zgartirish g'oyasi faol rivojlangan.

XVIII asrga kelib pedagogika fanining nazariyotchilarini va amaliyotchilarining keng aholi qatlamlarini o'qitish va tarbiyalash va ta'lim mazmunini hayotga yaqinlashtirish masalalariga e'tibori ortib bormoqda. I.Pestalotsining faoliyatida bola tarbiyasi va o'z-o'zini rivojlantirishda mehnatning o'rni haqidagi ta'limotilgari surilgan. Pedagogik nazariya va amaliyotda ta'limni demokratlashtirish va erishilgan madaniyat darajasiga mos keladigan real mazmun bilan to'ldirish zarurati A. Disterveg, P.Natorpning pedagogik qarashlarida, shuningdek, ma'lum darajada o'z ifodasini topdi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida G. Kershenshtayner, V. Liem, J. Dyui va boshqa olimlar tomonidan "islohot pedagogikasi" deb nomlangan nazariyotchilarining g'oyalari taqdim etildi. G. Kershenshtayner "fuqarolik ta'limi" kontsepsiyasini ilgari surdi, unga ko'ra xalq maktabi bolalarini davlatga so'zsiz bo'y sunishga o'rgatishi va kelgusida ijtimoiy kelib chiqishiga mos keladigan kasbiy faoliyatga tayyorlanishi kerak. V.Lay "ta'sir-reaktsiya" formulasi asosida

“harakat pedagogikasi”ni taklif qildi, unga ko’ra ta’lim va tarbiya o’quvchilarga tashqi ta’sirlar tizimi va ularning chizish, modellashtirish, musiqa shaklida javob berishlari sifatida qaraladi.

J. Dyui “pragmatik pedagogika” ning asoschisi bo’lib, uning ta’limotiga ko’ra bola yoki kattalar o’ziga meros bo’lib qolgan intellektual impulslari va qobiliyatlariga qarab aqliy rivojlanishi kerak. Farzandni tarbiyalashda uning oilada, ijtimoiy muhitda orttirgan amaliy tajribasi bilan bir qatorda irsiyatni ham hisobga olish kerak. 1920-1930-yillarda G’arbiy Evropada “jamoa ta’limi” va “jamoa maktablari” g’oyalari tarqaldi, ularning birinchi loyihalari Buyuk Britaniya va AQShda paydo bo’ldi. “Norasmiy”, “ochiq” ta’limdan farqli o’laroq, ularda an’anaviy darslar o’rniga an’anaviy darslar va chaqiruvlarsiz moslashuvchan jadval joriy etildi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Галагузова М. А. и др. Социальная педагогика. – 2016.
2. Қорабоева З., Абдусаматова Н. Ижтимоий педагогика (атамалар изоҳли луғати). –Наманган, 2017, 12-бет
3. Мартынова И. А. Социально-педагогическая деятельность в учреждениях социального обслуживания: дис. – 2017.
4. Amonov M. N. The problems of designing professional skills and independent training of future teachers in Uzbekistan //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 22-26.
5. Amonov M. ПЕДАГОГИК МАҲОРАТНИ ШАКЛАНТИРИШДА ТАВАККАЛЧИЛИК (РИСКОЛОГИЯ) НИНГ ЎРНИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 31. – №. 31.
6. Amonov M. О ‘QUVCHILARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING OMILLARI VA MEZONLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 31. – №. 31.
7. Amonov M. ФОРМИРОВАНИЕ ГРАЖДАНСКОЙ ПОЗИЦИИ У ШКОЛЬНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 31. – №. 31.

ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ ВОСПИТАНИЯ И ОБРАЗОВАНИЯ ПРЕДКОВ

**Абдуллаев Кобилжон Файзуллаевич
Бухарский государственный университет**

Анализ сохранившихся до наших дней рукописей зороастрийцев, написанных на пехлеви, как «Дадестон-и меног-и храд» (Суждение духа разума), «Бундахишн», «Арта виразнома», «Ояткор Зареран», «Затспорам», «Корномаи Ардашери Бобакон», «Бахман яшт», «Ривоят», «Рост Сухан», «Шойист-ношайист», «Чим-и-дрон», «Андарз-и данаг мард», «Хвешкарих-и

M.B. Qambarov. BO'LAJAK OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASSISLARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK JIHATLARI.....	105
F.F. Narzulloyeva. YOSHLARDA IJOD VA KREATIV FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM YO'NALISHLARI.....	107
M.Yo.Umarova. XALQ QO'SHIQLARINING BOLALAR TARBIYASIDAGI O'RNI.....	109
M.Yo.Umarova. F.F. Raximova. TASAVVUF TA'LIMOTIDA USTOZ-SHOGIRD AN'ANALARI.....	133
B.B. Xodjiyev. OLIY TA'LIM O'QITUVCHISINING PEDAGOGIK NAZOKATI VA AXLOQINING IJODIY KO'RINISHI.....	118
A.T. Gulboyev. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MALAKAVIY AMALIYOTLARNI O'TKAZISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....	121
H.R. Hasanov, A.B. Barotboyev MUSIQA DARSLARIDA O'ZBEK XALQINING MUSIQIY MEROSIDAN FAYDALANISH.....	124
M.N. Amonov. TALABALARNI IJTIMOIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.....	126
Q.F. Abdullayev. ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ ВОСПИТАНИЯ И ОБРАЗОВАНИЯ ПРЕДКОВ.....	128
4-ShO'BA. OLIY TA'LIM TIZIMIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY VA TARBIYAVIY ISHLAR TA'SIRChANLIGINI OShIRISH MEXANIZIMLARI.....	132
M.O. Ochilova. OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING MA'NAVIY-AXLOQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	132
G.G. Xabibova. TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYAVIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISHGA TEXNOLOGIK YONDASHUV VA UNI LOYIHALASH.....	134
G.G. Xabibova, M.E. Mirzayeva. TALABA YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY ODATLARINI TARBIYALASH VAZIFALARI.....	139
M.N. Usmanova. ONTOGENEZNING TURLI DAVRLARIDA IJTIMOIY FOBIYA KO'RINISHLARINING NAMOYON ETILISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	142
N.F. Mexmonova. YOSHLARDA MILLIY IFTIXOR TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI.....	146
Yu.Z. Saidova. YANGI O'ZBEKİSTONDA YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR.....	148
Sh.K.O'rinnov. MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI VA USULLARI.....	150
O.R. Ortikov. MA'NAVIY ISLOHOTLAR OLIY TA'LIMDA TAHSIL OLAYOTGAN BO'LAJAK PEDAGOGLARNI TARBIYALASH MANBAI.	154

Sh.U. Ismatov. OLIY TA'LIM TALABALARINING MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRINSHGA YANGICHA YONDASHUV - DAVR TALAB...	156
H.B. Ismatova. OLIY TA'LIM TIZIMIDA TARBIYAVIY ISHLAR TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	164
M.SH.Xojoyeva. QADRIYAT G'OYASI VA UNING UMUMIY AKSIOLOGIYADAGI RIVOJI.....	166
B.T. Hamrayev. MAKTABGACHA TA'LIM VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA JISMONIY TARBIYA.....	169
S. Yaxyaeva. GENDERGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURLIGI XUSUSIDA.....	171
Sh.R. Alimova. TALABALARNING MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XALQ PEDAGOGIKASINING O'RNI.....	174
A.A. Odilov. PROFESSIONAL TA'LIMDA SIFATNI TASHQI TA'MINLASH: ASOSIY MANFAATDOR TOMONLAR SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH EHTIYOJALARINI BAHOLASH.....	177